

**AHOLI ORASIDA OVQAT HAZM QILISH A'ZOLARI KASALLIGINING
TARQALISH KO'RSATKICHI (Surxondaryo viloyatida misolida)****J.J.Jalilov***Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali assistenti***R.U. Subxonov., B.Z.Uralov., D.B.Avazov., J.J.Muxammadiyev***Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali talabalari*

Bugungi kunda Yer yuzida yashovchi insonlar orasida hazm qilish a'zolari kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, bu kasalliklarning ma'lum turlari bilan kasallanib kelmoqdalar. Xususan, O'zbekiston Respublikasining janubida joylashgan Surxondaryo viloyati aholisi orasida ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra 3,1% ni tashkil qilib, asosan qishloq aholisi orasida bu kasallik keng tarqalgandir.

Qishloq aholisi orasida ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillardan biri noto'g'ri ovqatlanishdir.

Viloyat aholisi orasida ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari 3,1% ni tashkil qilib, aholining 18-29 yosh orasida kasallikning 10% ni, 65 yosh va undan oshganlarda 8,1% ni, ayollarda 10,7% bu kasallik bilan kasallanganliklari aniqlandi.

Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari qishloqlarda yashovchi aholining 4,4% ni tashkil qilib, ulardan, ovqat hazm qilish a'zolari kasalligi bilan kasallangan ayollar 57% ni tashkil qiladi.

Viloyat aholisi orasida ovqat hazm qilish a'zolari kasalligi birinchi marta aniqlanganlar, ya'ni avval bu kasallik bilan og'rimagan, tekshiruv yoki ko'rik natijasida aniqlanganlar 44,5% ni tashkil qilib, ulardan, 18-25 yoshdagilar 6,33% ni, 65 yosh va undan yuqoridagilar orasida 4,76% ni hamda ayollar 33,4% ni tashkil qildi.

Viloyat aholisi orasida ovqat hazm qilish a'zolari kasalligi shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisi orasida keng tarqalganligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich birinchi marta aniqlanganlar orasida 60 % dan yuqori ekanligi qayt etildi. Viloyat qishloqlarida yashovchilar shu kasallik bilan og'rigan ayollarning 60,8% da birinchi marta aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari Surxondaryo viloyati aholisi orasida uchrash ko'rsatkichi shahar aholisiga nisbatan qishloqlarda yashovchilar orasida ko'p uchrashi qayt etildi. Bu kasallik bilan viloyat aholisi orasida jins bo'yicha tahlil qilinganda ayollar ko'p kasallanishlari aniqlandi.

Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarini shahar va qishloq aholisi orasida kamaytirish maqsadida profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqib, aholi orasida yuqori kurs tibbiyot oligohlari talabalari va umumiy amaliyot shifokorlari keng qamrovli tushuntirish ishlari olib borilsa kasallanish ko'rsatkichi bir muncha kamaygan bo'lardi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Viloyat sitatistika qo'mitasining 2020-2023yil 1-aprel ma'lumotlari.
2. Jalilov J.J. Ibragimov A.U. Aholisi salomatligiga Tojikiston alyuminiy zavodi zaharli gazlarining ta'siri (Surxondaryo viloyatining shimoliy tumanlari misolida) // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. Toshkent-2021 yil. 32-35 b.